


## Navoiy viloyatining sanoat ishlab chiqarishi

(2021- yil yanvar-sentabr)


Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2021- yilning yanvar-sentabr oylarida viloyatimiz korxonalarini tomonidan 53 860,2 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2020- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishning fizik hajm indeksi\* 106,8 % ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarish tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi (83,2 %) ni tashkil etdi.



**B**-Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishslash, **C**-Ishlab chiqaradigan sanoat **D**-Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash, **E**-Suv bilan ta'minlash; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish.

### Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarishi, FHI\* % da




Jami sanoat ishlab chiqarish fizik hajmi o'sishining asosiy omili bo'lib, tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishslash sanoatida - 15,1 % ga va ishlab chiqaradigan (qayta ishslash) sanoatning - 6,1 % ga hamda elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashning- 0,8 % ga o'sishiga xizmat qildi.

Shuningdek, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilishda - 15,1 % ga pasayish kuzatildi.

\***Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi** ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.

**Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoatining  
jami sanoat mahsulotlari hajmidagi ulushi, % da**  
(2021- yilning yanvar-sentabr oylarida)



Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2021- yilning yanvar-sentabr oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 6 245,7 mlrd. so‘mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 11,6 % ini tashkil etdi.

**Jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi  
(yil boshidan I-II-III-chorakalar, % da)**




**Ishlab chiqaradigan sanoat**  
(2021- yilning yanvar-sentabr oylarida)



2021- yilning yanvar-sentabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 44 800,4 mlrd. so‘mni yoki jami sanoat mahsulotlarining 83,2 % ni tashkil etdi.

## Jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi (yil boshidan I-II-III-chorakalar, % da)




O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,3 % ni (2020- yilning yanvar-sentabr oylarida - 0,3 %), o'rta-yuqori texnologiyali - 7,8 % (5,0 %), o'rta-quyi texnologiyali - 85,0 % (88,2 %) va quyi texnologiyalisi - 6,9 % (6,5 %) ni tashkil etdi.

Yuqori texnologiyali	O'rta-yuqori texnologiyali
<b>Ulushi % da</b> <div style="display: flex; justify-content: space-around;"> <span>0,3</span> <span>2020- y.</span> </div> <div style="display: flex; justify-content: space-around;"> <span>0,3</span> <span>2021- y.</span> </div>	<b>Ulushi % da</b> <div style="display: flex; justify-content: space-around;"> <span>5,0</span> <span>2020- y.</span> </div> <div style="display: flex; justify-content: space-around;"> <span>7,8</span> <span>2021- y.</span> </div>
<b>O'rta-quyi texnologiyali</b> <div style="display: flex; justify-content: space-around;"> <span>88,2</span> <span>2020- y.</span> </div> <div style="display: flex; justify-content: space-around;"> <span>85,0</span> <span>2021- y.</span> </div>	<b>Quyi texnologiyali</b> <div style="display: flex; justify-content: space-around;"> <span>6,5</span> <span>2020- y.</span> </div> <div style="display: flex; justify-content: space-around;"> <span>6,9</span> <span>2021- y.</span> </div>

Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ulushi - 3,8 % (2020- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi - 87,8 %), metallurgiya sanoatining ulushi - 76,2 % (2020- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi - 104,0 %), to'qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi - 3,6 % (2020- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi - 115,7 %), oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi - 3,0 % (2020- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi - 111,4 %), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi - 6,9 % (2020- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi - 150,2 %) ni tashkil etdi.

### Ishlab chiqaradigan sanoatda ayrim turdag'i mahsulotlarning o'sish sur'ati

2021- yilning yanvar-sentabr oylari davomida ishlab chiqaradigan sanoatda 10,7 ming m<sup>3</sup> azot (2020- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan 133,8 % ga o'sgan), 62,6 ming tonna natriy gidroksidi (kaustik soda) (115,4 %), 496,1 ming tonna suvsiz ammiak (179,7 %) ishlab chiqarilib, yuqori o'sish sur'atlari kuzatildi.




**Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalarini  
tomonidan ayrim turdag'i mahsulotlarni ishlab chiqarish**

Sanoat mahsulotlari	2020- yil yanvar-sentabr	2021- yil yanvar-sentabr	2020- yil yanvar-sentabr oyiga nisbatan o'sish, % da
<b>Portlandsement, ming tonna.</b>	2 753,0	2 881,4	104,7
<b>Azot, ming m<sup>3</sup></b>	8,0	10,7	133,8
<b>Yumshoq bug'doy va spelta uni, tonna</b>	50 556	47 361	93,7
<b>Natriy gidroksidi (kaustik soda), ming tonna</b>	54,2	62,6	115,4
<b>Kislorod, ming m<sup>3</sup>.</b>	146,7	122,2	83,3
<b>Suvsiz ammiak, ming tonna</b>	276,0	496,1	179,7
<b>Birinchi navli undan tayyorlangan bug'doy noni og'irligi 600 g (buxanka), tonna.</b>	338,9	359,3	106,0
<b>Tvorog va tvorogdan mahsulotlar, tonna</b>	61,4	51,6	84,0

Texnologik jihozlarni kapital qayta tiklash ishlari, kimyo korxonalarida ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish hajmini oshirish imkonini berib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan suvsiz ammiak 179,7 % ga hamda azot mahsulotining 133,8 % ga o'sishi qayd etildi.

Shuningdek, yumshoq bug'doy va spelta uni 2020- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan - 93,7 % ni tashkil qildi.


## Metallurqiya sanoati (2021- yil yanvar-sentabr)



Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2020- yilning yanvar-sentabr oylarida metallurgiya sanoati ulushi 78,6 % ni tashkil etib, uning fizik hajm indeksi 4,1 % ga o'sgan bo'lsa, 2021- yilning yanvar-sentabr oylari yakunlariga ko'ra, metallurgiya sanoatining ulushi 76,2 % gacha ko'tarilib, fizik hajm indeksi esa 4,0 % ga o'sdi va ishlab chiqarish hajmi 34 124,3 mlrd. so'mni tashkil etdi.

## Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish (2021- yil yanvar-sentabr)


Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2020- yilning yanvar-sentabr oylarida boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ulushi 4,8 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 96,7 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2021- yilning yanvar-sentabr oylari yakunlariga ko'ra, boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 3,8 % ni tashkil etdi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 87,8 % ni tashkil etdi va ishlab chiqarish hajmi 1 696,2 mlrd. so'mni tashkil etdi.



## Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati


(2021- yil yanvar-sentabr)

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2020- yilning yanvar-sentabr oylarida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 2,9 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 107,4 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2021- yilning yanvar-sentabr oylari yakunlariga ko'ra, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 3,0 % ni tashkil etdi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 111,6 % ga oshdi va ishlab chiqarish hajmi 1 354,4 mlrd. so'mni tashkil etdi.



## Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish

(2021- yil yanvar-sentabr)




2020- yilning yanvar-sentabr oylari yakunlariga ko'ra kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 4,0 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 95,8 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2021- yilning yanvar-sentabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 6,8 % ni, fizik hajm indeksi 164,7 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 3 031,5 mlrd. so'mni tashkil etdi.

## Elektr, gaz, bug' bilan taminlash va havoni konditsiyalash

(2021- yilning yanvar-sentabr oylarida)



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 2 753,3 mlrd. so'mni jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 5,1 % ni tashkil etdi.

2021- yilning yanvar-sentabr oylarida, sanoatning mazkur tarmog'ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug' bilan ta'minlash tizimlari va havoni konditsiyalash o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 100,8 % ni tashkil etdi.

### **Jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi, % da**

(yil boshidan I-II-III-chorakalar, % da)




### Elektr, gaz, buq' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalarini tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chigarish

Sanoat mahsulotlari	2020- yil yanvar-sentabr	2021- yil yanvar-sentabr	Farqi +/-
Elektroenergiya, mln.kVt.s	8 598,1	8 660,1	62,0
Issiqqlik energiyasi, ming gkal	2 417,40	3 069,8	652,4

## Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish


(2021- yilning yanvar-sentabr oylarida)



Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 60,8 mln. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,1 % ini) tashkil etdi.

### Jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi, % da

(yil boshidan I-II-III-chorakalar, % da)




Sanoat mahsulotlari	2020- yil yanvar-sentabr	2021- yil yanvar-sentabr	Farqi +/-
Oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, mln.so'm	26 501,7	48 605,4	22 103,7
Xavfli (zaharli) sanoat chiqindilarini yig'ish bo'yicha xizmatlar, mln. so'm	9,3	81,4	72,1
Boshqa guruhlarga kiritilmagan, qayta foydalanishga yaroqli yig'ilgan boshqa xavfsiz chiqindilar, tonna	44 026,6	34 911,4	-9 115,2

O'tgan yilning mos davriga nisbatan oqava suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar 183,4 % ni va xavfli (zaharli) sanoat chiqindilarini yig'ish bo'yicha xizmatlar - 8,8 (bar.) ga oshganligi kuzatildi.

Shuningdek, boshqa guruhlarga kiritilmagan, qayta foydalanishga yaroqli yig‘ilgan boshqa xavfsiz chiqindilar 2020- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan - 79,3 % ni tashkil qildi.

### **Iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarish**

Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo’llab-quvvatlash bo‘yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 3 064,6 mlrd. so‘mni tashkil etdi va 2020- yilning mos davriga nisbatan 109,3 % ni tashkil etdi, uning jami sanoatdagi ulushi 5,7 % ni tashkil etdi.



Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida vino va aroq mahsulotlari va pivo 0,1 % (2020- yil yanvar-sentabr oylarida 0,2 %) ni tashkil etdi.

Hududlar kesimida iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Navoiy shahriga to‘g’ri kelib 29,1 % ni, Karmana tumani 19,5 % ni, Xatirchi tumani 12,3 % ni, Qiziltepa tumani 12,0 % ni hamda Navbahor tumani 7,6 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining o’sish sur’atida viloyat o’sish sur’ati (109,3 %) darajasidan yuqori ko’rsatkich Zarafshon shahrida (123,2 %) hamda Karmana tumanida (119,5 %) qayd etildi.

**Hududlar bo'yicha iste'mol mahsulotlari ishlab  
chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati**  
**(2021- yilning yanvar-sentabr oylarida)**

	Mldr. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da
	3 064,6	100,0	109,3
<b>Navoiy viloyati.</b>			
	Mldr. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da
	890,3	29,1	103,2
<b>Navoiy sh.</b>		<b>Navbahor t.</b>	
	Mldr. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da
	228,3	7,4	123,2
<b>Zarafshon sh.</b>		<b>Nurota t.</b>	
	Mldr. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da
	598,7	19,5	119,5
<b>Karmana t.</b>		<b>Tomdi t.</b>	
	Mldr. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da
	77,0	2,5	106,5
<b>Konimex t.</b>		<b>Uchquduq t.</b>	
	Mldr. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da
	366,7	12,0	110,0
<b>Qiziltepa t.</b>		<b>Xatirchi t.</b>	
	Mldr. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da
	377,2	12,3	104,7

Hududlar kesimida nooziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyatda jami hajmidagi eng yuqori ulushi Navoiy shahriga to'g'ri kelib 35,2 % ni, Karmana tumani 22,8 % ni, Xatirchi tumani 8,8 % ni, Nurota tumani 8,1 % ni, Qiziltepa tumani 7,6 % ni hamda Navbahor tumani 7,1 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, nooziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida viloyat o'sish sur'ati (107,2 %) darajasidan yuqori ko'rsatkich Karmana tumanida (113,5 %) qayd etildi.

**Hududlar bo'yicha nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chigarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati**  
**(2021- yilning yanvar-sentabr oylarida)**

	Mird. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da
	1 816,2	100,0	107,2
<b>Navoiy viloyati.</b>			
	Mird. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da
	639,2	35,2	103,1
<b>Navoiy sh.</b>			
	Mird. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da
	109,6	6,0	112,7
<b>Zarafshon sh.</b>			
	Mird. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da
	414,0	22,8	113,5
<b>Karmana t.</b>			
	Mird. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da
	41,1	2,3	106,5
<b>Konimex t.</b>			
	Mird. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da
	137,0	7,6	102,0
<b>Qiziltepa t.</b>			
	Mird. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da
	129,1	7,1	112,6
<b>Navbahor t.</b>			
	Mird. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da
	147,3	8,1	109,5
<b>Nurota t.</b>			
	Mird. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da
	13,3	0,7	103,3
<b>Tomdi t.</b>			
	Mird. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da
	25,7	1,4	102,2
<b>Uchquduq t.</b>			
	Mird. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da
	159,9	8,8	104,9
<b>Xatirchi t.</b>			

Hududlar kesimida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyatimizda jami hajmidagi eng yuqori ulushi Navoiy shahriga 20,1 % ni, Qiziltepa tumaniga to'g'ri kelib 18,4 % ni, Xatirchi tumani 17,4 % ni, Karmana tumani 14,8 % ni hamda Zarafshon shahrida 9,5 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida eng yuqori ko'rsatkich Karmana tumanida (135,5 %) qayd etildi.

**Hududlar bo'yicha oziq-ovqat mahsulotlari ishlab  
chigarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati**  
*(2021- yilning yanvar-sentabr oylarida)*

	Mird. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da
	1 248,4	100,0	112,7
<b>Navoiy viloyati.</b>			
	Mird. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da
	251,1	20,1	103,5
<b>Navoiy sh.</b>			
	Mird. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da
	118,7	9,5	134,8
<b>Zarafshon sh.</b>			
	Mird. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da
	184,7	14,8	135,5
<b>Karmana t.</b>			
	Mird. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da
	35,9	2,9	106,5
<b>Konimex t.</b>			
	Mird. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da
	229,7	18,4	115,4
<b>Qiziltepa t.</b>			
	Mird. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da
	103,4	8,3	105,0
<b>Navbahor t.</b>			
	Mird. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da
	46,6	3,7	105,8
<b>Nurota t.</b>			
	Mird. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da
	14,4	1,2	104,2
<b>Tomdi t.</b>			
	Mird. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da
	46,6	3,7	106,0
<b>Uchquduq t.</b>			
	Mird. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da
	217,3	17,4	104,6
<b>Xatirchi t.</b>			

**Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar  
tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chigarish**  
*(2021- yilning yanvar-sentabr oylarida)*

Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan 1 165,0 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi.


Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarning umumiy ishlab chiqarishdagi tutgan ulushi 2,2 % ni tashkil etdi.

**Navoiy viloyatining shahar va tumanlar kesimida**  
**sanoat ishlab chiqarishi hajmlari**  
*(2021- yilning yanvar-sentabr oylarida)*

	<i>Mlrd. so'm</i>	<i>Ulushi % da</i>	<i>O'sishi % da</i>
	<b>53 860,2</b>	<b>100,0</b>	<b>106,8</b>
<b>Navoiy viloyati.</b>			
	<i>Mlrd. so'm</i>	<i>Ulushi % da</i>	<i>O'sishi % da</i>
<b>46 054,5</b>	<b>85,5</b>	<b>106,8</b>	
<b>Navoiy sh.</b>			
	<i>Mlrd. so'm</i>	<i>Ulushi % da</i>	<i>O'sishi % da</i>
<b>261,9</b>	<b>0,5</b>	<b>109,7</b>	
<b>Zarafshon sh.</b>			
	<i>Mlrd. so'm</i>	<i>Ulushi % da</i>	<i>O'sishi % da</i>
<b>5 271,0</b>	<b>9,8</b>	<b>104,1</b>	
<b>Karmana t.</b>			
	<i>Mlrd. so'm</i>	<i>Ulushi % da</i>	<i>O'sishi % da</i>
<b>88,0</b>	<b>0,2</b>	<b>107,9</b>	
<b>Konimex t.</b>			
	<i>Mlrd. so'm</i>	<i>Ulushi % da</i>	<i>O'sishi % da</i>
<b>454,6</b>	<b>0,8</b>	<b>110,1</b>	
<b>Qiziltepa t.</b>			
	<i>Mlrd. so'm</i>	<i>Ulushi % da</i>	<i>O'sishi % da</i>
<b>902,1</b>	<b>1,7</b>	<b>110,6</b>	
<b>Xatirchi t.</b>			

## Navoiy viloyati shahar va tumanlar kesimida ishlab chigarish fizik hajm indeksi, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarishning o'sish sur'ati, % da

Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish Navbahor (2020- yilning yanvar-sentabr oyiga nisbatan 117,0 %), Uchquduq (112,4 %), Xatirchi (110,6 %) tumanlarida sezilarli darajada oshdi.




Iste'mol mahsulotlarini ishlab chiqarish Zarafshon shahrida (2020- yilning yanvar-sentabr oyiga nisbatan 123,2 %), Karmana tumanida (119,5 %), Qiziltepa tumanida (110,0 %) hamda Nurota tumanida (108,6 %) sezilarli darajada oshdi.

## Navoiy viloyati jami sanoat mahsulotlari hajmida shahar va tumanlarning ulushi, % da

Navoiy viloyatida sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko'p ulush Navoiy shahri (Viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmining 85,5 %) hamda Karmana (9,8 %), Xatirchi (1,7 %), Navbahor ( 0,8 %), Qiziltepa ( 0,8 %), tumanlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Eng past ko'rsatkich esa Tomdi ( 0,1 %), Konimex (0,2 %), Uchquduq (0,2 %), Nurota (0,4 %) tumanlari hamda Zarafshon (0,5 %) shahri hissasiga to'g'ri kelmoqda.



Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning taqsimlanish tahlili Navoiy shahrida (310 684,0 ming so'm), Karmana tumani (40 638,7 ming so'm), Xatirchi tumani (4 436,5 ming so'm), Navbahor tumani (3 904,8 ming so'm), Zarafshon shahrida (3 072,8 ming so'm) va Qiziltepa (2 934,9 ming so'm) tumanida ancha yuqoriligini ko'rsatmoqda.

Viloyat bo'yicha aholi jon boshiga iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishi Navoiy shahrida - 6 006,2 ming so'mni, Karmana tumani - 4 616,1 ming so'mni, Zarafshon shahrida - 2 678,5 ming so'mni, Qiziltepa tumani - 2 367,2 ming so'mni, Konimex tumani - 2 116,9 ming so'mni va Nurota tumani - 2 049,2 ming so'mni tashkil etdi.

**Aholi jon boshiga to'q'ri keladigan sanoat mahsulotlari  
va iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish**  
(2021- yilning yanvar-sentabr oylarida, ming so'm)

	Sanoat mahsulotlari		Iste'mol mahsulotlari	
	52 752,8		3 001,6	
Navoiy viloyati				
	Sanoat mahsulotlari	Iste'mol mahsulotlari		Sanoat mahsulotlari
	310 684,0	6 006,2		3 904,8
Navoiy sh.				2 013,6
	Sanoat mahsulotlari	Iste'mol mahsulotlari		Sanoat mahsulotlari
	3 072,8	2 678,5		2 500,3
Zarafshon sh.				2 049,2
	Sanoat mahsulotlari	Iste'mol mahsulotlari		Sanoat mahsulotlari
	40 638,7	4 616,1		2 090,8
Karmana t.				1 819,0
	Sanoat mahsulotlari	Iste'mol mahsulotlari		Sanoat mahsulotlari
	2 418,3	2 116,9		2 870,9
Konimex t.				1 907,3
	Sanoat mahsulotlari	Iste'mol mahsulotlari		Sanoat mahsulotlari
	2 934,9	2 367,2		4 436,5
Qiziltepa t.				1 855,2
	Sanoat mahsulotlari	Iste'mol mahsulotlari		Xatirchi t.

## Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi (2021- yilning yanvar-sentabr oylarida, % da)

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 3 364,3 mlrd. soʻmlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiyligi ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 6,2 % ni tashkil etdi.


Shahar va tumanlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Uchquduq tumanida (100,0 %), Tomdi tumanida (100,0 %), Konimex tumanida (100,0 %), Zarafshon shahrida (99,1 %), Nurota tumanida (93,8 %), Qiziltepa tumanida (85,1 %) tashkil etdi.




Viloyatimizda shahar va tumanlar kesimida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida kichik biznes subyektlarining ulushi tahlili shuni koʻrsatdiki, Navoiy shahrida (1,7 %), Karmana (16,0 %), Xatirchi (44,0 %), Navbahor (53,7 %) tumanlarida sanoat ishlab chiqarish hajmlaridagi kichik biznes subyektlari ulushining kamligini, mazkur hududlarda joylashgan yirik sanoat korxonalarining ishlab chiqarish hajmlari yuqori ekanligi bilan izohlash mumkin.

**Viloyatimizda faoliyat yuritayotgan sanoat korxonalari soni, birlikda**  
 (2021- yil 1- oktabr holatiga ko'ra)

Bugungi kunda viloyatimizda 3 713 ta sanoat korxonalari faoliyat ko'ssatmoqda, shundan 776 tasi (mavjud korxonalar umumiyligining 20,9 %) Navoiy shahriga, 607 tasi (16,3 %) Karmana tumaniga, 475 tasi (12,8 %) Xatirchi tumani hissasiga to'g'ri kelmoqda.



**Viloyatimizda yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari soni, birlikda**  
 (2021- yil 1- oktabr holatiga ko'ra)



2021- yil yanvar-sentabr oylarida viloyatimizda 929 ta yangi sanoat korxonalari tashkil etildi, jumladan 135 tasi (jami yangi tashkil etilgan sanoat korxonalarini sonidagi ulushi 14,5 %) Uchquduq tumanida, 126 tasi (13,6 %) Xatirchi tumanida, 117 tasi (12,6 %) Navoiy shahrida, 107 tasi (11,5 %) Karmana tumanida, 91 tasi (9,8 %) Zarafshon shahrida, 84 tasi (9,0 %) Qiziltepa tumanida, 71 tasi (7,6 %) Navbahor tumanida, 55 tasi (5,9 %) Konimex tumanida, 51 tasi (5,5 %) G'ozg'on shahrida, 49 tasi (5,3 %) Tomdi tumanida hamda 43 tasi (4,6 %) Nurota tumanida tashkil etildi.

## Tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliylashtirish dasturining amalga oshirilishi

Viloyatimizda sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning yuqori o'sish sur'atlariga erishishda tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliylashtirish dasturining amalga oshirilishi ham o'z ta'sirini ko'rsatdi. Mazkur dastur doirasida kiritilgan 200 ta loyiha bo'yicha 1 373,5 mlrd. so'mlik mahsulotlar ishlab chiqarildi. Mahalliylashtirish dasturi doirasida ishlab chiqarilgan mahsulotlardan 13,3 mln. AQSh dollari miqdorida eksport qilindi.

Mahalliylashtirish dasturi doirasida 2021- yilning yanvar-sentabr oylarida 517 ta yangi ish o'rnlari yaratildi o'tgan yilning mos davri bilan taqqoslaganda yangi tashkil etilgan ish o'rnlari soni (4,3 bar) ga ko'paygan. Shu bilan birga, 2020- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan mahalliylashtirilgan mahsulotlar eksporti hajmining ko'payganligi kuzatildi.

### Tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliylashtirish dasturining asosiy ko'rsatkichlari

